



MAKTABLARDA KADRLARNI ISHGA OLISH JARAYONIDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNING HUQUQIY YECHIMLARI

Sadullayeva Farida Farxod qizi

Termiz Davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola mamlakatimizdagi maktablarda uchrayotgan asosiy muammolardan biri bo'lgan kadrlar masalasini hal qilish, maktab ta'limini takomillashtirish uchun ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi haqidagi qarashlarni o'z ichiga olgan.

Kalit so'zlar: kompleks, mulk, dunyoviy, kreativ, jadid, maktab.

ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ПРОЦЕССЕ ТРУДОУСТРОЙСТВА КАДРОВ В ШКОЛЕ И ИХ ПРАВОВЫЕ РЕШЕНИЯ

Аннотация: В данной статье содержатся взгляды на необходимость решения кадрового вопроса, одной из основных проблем, с которыми сталкиваются школы в нашей стране, на необходимость реализации комплексных мер, направленных на преодоление этих проблем, для совершенствования школьного образования.

Ключевые слова: комплекс, собственность, светский, творческий, Джадид, школа.

PRACTICAL PROBLEMS IN THE PROCESS OF EMPLOYMENT OF PERSONNEL IN SCHOOLS AND THEIR LEGAL SOLUTIONS

Annotation: This article included views on the need to solve the personnel issue, one of the main problems encountered in schools in our country, to implement complex measures aimed at eliminating these problems in order to improve school education.



Keywords: complex, property, secular, creative, jadid, school.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida islohotlarni boshidan kechirgan va natijasini ko'rsata olgan sohalardan biri ta'lim tizimidir. O'zbekiston ilm-fanga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Zamonning tezkor taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yangi fan sohalari bo'yicha tadqiqotlar yo'lga qo'yildi. Tabiiy va aniq fanlarni o'qitish va ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, respublika oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilar faoliyatining salmoqli qismi ilmiy tadqiqotlarga qaratilganligi o'z samarasini bera boshladi. "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi" O'zbekistonda ilmu-fan rivojlanishiga bosh maqsadlardan biri etib belgilandi.

Ta'lim darajasi indeksi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturining (BMTTD) umumiy ko'rsatkichi bo'lib, u kattalar savodxonligi indeksi va ta'lim olayotgan talabalarning jami ulushi indeksi sifatida hisoblanadi. Quyidagi statistik axborotda MDH davlatlarining ta'lim sifati bo'yicha reytingi berilgan.¹





1997-yil 29-avgustda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, ushbu dastur “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan. O‘zbekiston Respublikasida 2020-yil 23-Sentyabr kuni “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririni imzolandi. Qonunga muvofiq ta‘lim turlari quyidagilardan iborat.

- Maktabgacha ta‘lim va tarbiya;
- Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim;
- Professional ta‘lim;
- Oliy ta‘lim;
- Oliy ta‘limdan keying talim;
- Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- Maktabdan tashqari ta‘lim.²

Maktab – o‘qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma‘lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o‘quv tarbiya muassasasidir.

O‘zbekistonda maktab, asosan, davlat mulki bo‘lib, unda o‘qish bepuldir. Shu bilan birga oliy o‘quv yurtlarida o‘qish qisman shartnoma asosida ota-onalar mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yilda qabul qilingan „Ta‘lim to‘g‘risida“gi qonuni hamda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ da belgilab berilganidek, O‘zbekiston maktablarida ta‘lim o‘quvchilarning ona tilida olib boriladi. Barcha maktablarda o‘quvchi va talabalar uchun uzluksiz tarzda ta‘limning quyi bosqichidan yuqori bosqichiga o‘tish ta‘minlangan.

Maktabda o‘quvchilarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta‘lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Maktabda ta‘lim jarayonlari dunyoviy xususiyatga ega.³

² „Ta‘lim to‘g‘risida“gi qonunning 7-moddasi.

³ „Ta‘lim to‘g‘risida“gi qonunning 4-moddasi.



Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olish yuzasidan konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Maktab - bolalarning bog'chada olgan bilimlarini mukammallashtiradigan, oliy ta'lim uchun tayyorlaydigan boshlang'ich ta'limning davomidir.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, o'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoada ishlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Maktab shunday joy bo'lishi kerakki, bolalar "maktab" desa borishga shoshilib turishi kerak. Hozirgi kunda ko'pchilik bolalarda ta'limga qiziqish umuman yo'q. Afsuski bolalar maktablarga majburlikdan borishmoqda, ya'ni faqat davomat uchun.

Maktablar bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga moslashtirilishi kerak. Bu esa o'qituvchilar, o'quv dasturlari va maktab muhitining sifatiga bog'liq. Maktabda qiziqarli, interaktiv va ijodiy uslubda ta'lim berish, bolalarga o'z qiziqishlari va iste'dodlarini rivojlantirish imkoniyatini berishi muhim. Shuningdek, darslar faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi, balki amaliyot va hayotiy tajribalarni o'z ichiga olishi lozim. Maktabda ijtimoiy ko'nikmalar, jamoaviy ish va muloqot qilish imkoniyatlarini ham taqdim etish kerak. Bularning barchasi bolalarning maktabga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ota-onalar va jamiyat maktab ta'limining ahamiyatini tushunib, bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlashi muhimdir. Maktablar va jamiyat o'rtasidagi aloqani kuchaytirish, ta'limning ahamiyatini oshirishga yordam beradi.



Mamlakatimizdagi maktablarning hammasida eng katta muammolardan biri sifatli kadrlar yetishmasligidir. O'qituvchi qancha ko'p malakali, o'z sohasida hamda psixologik sohada bilimli, dunyoqarashi keng, bola fikrini hurmat qiladigan pedagog bo'lsa bu bola uchun katta yutuqdir. Malakali pedagog bolalar bilan qanday qilib til topishishni va ular bilan ishlashishni biladi. O'qituvchi uchun eng qiyin ish bu - bolalarni xafa qilmaslik va ulardan xafa bo'lmaslikdir. O'qituvchi qanchalar bola bilan ishlay olsa, bola shu o'qituvchini darsiga qiziqqanidan boradi, uni "maktabga bor" deb kimdir majburlashi ham shart emas. Bundan tashqari o'qituvchining bola oldidagi hurmati qancha yuqori bo'lsa, bola o'qituvchini oldida uyalib qolishdan cho'chib ham o'qiydi. Qarabsizki birgina malakali, dunyoqarashi keng, bolalar fikrini hurmat qiladigan kadr bolani ham bilim olishiga, ham maktabga har kuni va o'z vaqtida kelishiga sababchi bo'lyapti. Demak, bolaning maktabga ixtiyoriy kelishi uchun birinchi va eng muhim asos - har taraflama bilimli, malakali kadrning dars mashg'ulotini o'tishidir.

Bola umumiy bilimni maktabda oladi. Undan keyin kimdir oliy ta'limda o'qishni davom ettiradi, yana kimdir oila boqish tashvishida mehnat qiladi va o'qishga vaqt topolmaydi. Agar umumiy o'rta ta'lim puxta egallansa undan keyingi ta'lim shakllarni o'qimay turib ham muayyan yo'nalishda faoliyat olib borish mumkin. Mamlakatimizda davlat ishida ishlash uchun oliy ta'limni o'qib tugatganlik haqida diplom kerak. Ammo fuqarolar davlat ishida ishlamay ham muayyan faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin, bu cheklanmagan.

Oliy ta'limni bitrdim endi "ishlarim besh" deganlarni oldida ish topish muammosi, ish topganlarni oldida oylik kamligi muammosi turipti. Hatto ikki-uchtalab universitetni bitirgan malakali kadrlar O'zbekistondagi davlat ishini tashlab chet davlatlarga ishlagani ketyapti. Asosiy muammo oylik kamligi. Agar shu ketish bo'lsa kadrlar taqchilligi muammosi ommaviy tus oladi. Buning oldini olish uchun oyliklarni oshirish kerak. Oliy ta'limni tugatgan yosh mutaxassislar o'rtasida ish topish muammosi va oyliklarning pastligi jiddiy tashvishlarni keltirib



chiqarayotgandi. O'zbekistonda ish beruvchilar, ayniqsa davlat sektori, yuqori malakali kadrlarni jalb qilish va saqlash uchun raqobatbardosh ish haqi taklif qila olmayotgani sababli ko'plab mutaxassislar chet elga chiqib ketishga majbur bo'lmoqda.

Oyliklarning pastligi nafaqat mutaxassislar uchun, balki mamlakat iqtisodiyoti uchun ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Bu, kadrlar taqchilligi, malakali mutaxassislarning yo'qligi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Oylik kam, ish hajmi ko'p bo'lsa har qanday odam ham o'z kasbidan bezib qoladi. Masalan, o'qituvchini oyligi kam va ish soati ko'p. O'qituvchilik kasbi og'ir mashaqqat, sabr talab etadigan og'ir kasblardan biri. Sal aqlini ishlatgan odam shuncha stress, bosh og'riq menga nimaga kerak deydid a darslarni sifatsiz, faqat nomiga o'tib, ishiga nisbatan sovuqqon munosabatda bo'la boshlaydi. Natijada bolalarni darsga qiziqishi o'lib, darsga bormaydigan bo'ladi. Eng yomoni sifatsiz, chalasavod bo'lajak kadrlar yetishib chiqaveradi. Qisqasi bu borada kamchiliklar, muammolar juda ko'p, ammo O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar davom etayotganini va ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun ko'plab ishlar qilinayotganini ham ta'kidlash joiz. Lekin bu yetarli emas. Malakali kadrlarni O'zbekistonda olib qolish uchun ish hajmiga mutanosib ravishda ish haqi to'lash kerak.

Ish haqi yuqori bo'lishi kerak deyapmiz-u ammo kadrlar masalasichi? Maktablarga ishga olinayotgan kadrlarning hammasi talabga javob beradigan kadrlarmi? Ularning bilim darajasi va bolalar bilan ishlash qobiliyati yaxshimi? O'zi kadrlarda bilim va qobiliyat mavjudmi? Oldimizdagi vazifa shu savollarga yechim topishdir. Ushbu savollarga yechim quyidagilarning yo'qligidir:

Birinchidan, maktablarda kadrlarni ishga olishda mukammal tizim ishlab chiqilmagan. Natijada chalasavod kadrlar ishga kirishda korrupsion holatlarga yo'l qo'ymoqda.



Ikkinchidan, maktablarda ishga olinayotgan kadrlar saylanib olinayotgani yo'q. Ya'ni ularni ishga olishda ularning bilimiga qaralmayapti, savol-javoblar o'tkazilmayapti.

Uchinchidan, maktablarda kadrlarni ishga olishda ularning bilimini baholovchi komissiyalar tuzilmagan.

O'zbekistonda maktabga o'qituvchi tanlab olish tizimi mavjud emas. Ta'lim sifati bo'yicha yaxshiroq natijalarni qayd etayotgan mamlakatlar allaqachon bu tizimni yo'lga qo'yib bo'lishgan. Bizda esa haliyam byurokratiya va mahalliychilikka asoslangan tartibda ish olib boriladi. Oliygozni yangi bitirgan talaba hududiy banlik bo'limiga boradi yoki tanishiga aytadi, shundan so'ng maktab direktoriga telefon bo'ladi, tamom. Agar o'sha talaba ishga olinmasa, direktorning o'zi ishdan ketib qolishi, eng kamida qandaydir jazoga tortilishi mumkin. Yoki aksincha, talaba direktorning o'zi bilan «kelishib qo'yaqoladi. Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan nizomga amal qilish tugul uni shu paytgacha hech kim o'qib ham ko'rmagan. O'qituvchini ishga qabul qilishda yo'l qo'yilgan birgina xato 40 yillik ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatishini hisobga olsak, bizning kelajakdagi hayotimiz juda ayanchli.

Masalan, Janubiy Koreyada o'qituvchilar oylik maoshi juda ham yuqori. Sababi u yerda o'qituvchi bo'lib maktabda ishlashning o'zi oson ish emas.

Pedagogika oliygohini tugatgan bilan darhol maktabda ishlashning imkoni yo'q. Pedagog diplomiga ega bo'lgan fuqaro maktabda o'qituvchi bo'lib ishlashi uchun avval 3 ta bosqichli imtihondan o'tishi kerak bo'ladi. Ya'ni, yozma, amaliy va suhbat jarayoni. Shu imtihondan o'tib sertifikat olganlarga o'qituvchi bo'la oladi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu sinov imtihoni juda qiyin kechgani uchun pedagogika oliygohini tugatganlarning atigi 10 foizigina maktabga o'qituvchi bo'lib ishga kiroladi xolos. Hamma bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tgan o'qituvchilar yana 2 toifaga ajratiladi. Bunda birinchi toifali o'qituvchi dars berish huquqiga ega bo'ladi, ikkinchi toifali o'qituvchi esa yordamchi o'qituvchi vazifasini



bajaradi. Ya'ni, ikkinchi toifadagi o'qituvchi maktabda ishlasada lekin dars berolmaydi, u faqat assistentlik qiladi.

Yana bir qiziq tarafi shundaki, sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilarni 62 yoshga to'lguniga qadar hech kim ishdan bo'shatolmaydi.⁴

Yakuniy xulosa shuki, ya'ni maktablarga kadrlarni ishga olishda shaffof tanlov tizimi va raqobat muhitini shakllantirish o'ta zarur. Kadrlar maktabga test va suhbatdan iborat imtihonlardan o'tgandan keyingina qabul qilinishi kerak.

Yuqorida aytib o'tilgan muammolar va kamchiliklar O'zbekistonda maktab ta'limining sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Toki biz ta'lim tizimidagi muammolarni hal qilmas ekanmiz kelajak avlodimiz bilimsizlik botqog'iga cho'kib boraveradi. Bilimsizlikning oxir-oqibat qanday oqibatlarga olib kelishi esa hech kimga sir emas. Maktab ta'limini takomillashtirish uchun ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, kuchli nazorat o'rnatish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. 1997-yil 29-avgustda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonun.
3. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.
4. 2020-yil 23-Sentyabr kuni "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri.
5. „Ta'lim to'g'risida“gi qonunning 4- 7 – moddalari .

Foydalanilgan ilmiy maqolalar:

1. Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li Nomozov. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR".
<https://cyberleninka.ru/>

⁴ <https://baxtiyor.uz/>



2. Xolboyeva Gulzira Rustamjonovna. “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR”.
<https://uniwork.buxdu.uz/>

Foydalanilgan internet saytlari:

1. <https://lex.uz/>
2. <https://gov.uz/oz/edu>
3. <https://baxtiyor.uz/>
4. <https://world.uz/blog/view>
5. <https://davr24.uz/archives/>